

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



## ZAMONAVIY MISR YOZUVCHISI SALVA BAKR IJODIY OLAMI

*Nasiba Umarova**Tayanch doktorant,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Arab dunyosi, Misr adabiyoti, qisqa hikoya, roman, an'ana va novatorlik, milliy meros, realizm, modernizm, postmodernizm, "Yangi mavj" oqimi, "Yangi roman" oqimi, qisqa roman.

**Annotatsiya:** Arab dunyosi xilma-xil va rang-barangdir. Har bir arab mamlakatining o'ziga xos madaniyati, adabiyoti mavjud. Zamonaviy Misr adabiyoti, xususan, romannavisligi o'zining sarmahsulligi va ijodkorlar uslubining o'ziga xosligi bilan o'z milliy xususiyatlarini namoyon qiladi.

XX asrning ikkinchi yarmida Sharq adabiyoti takomilida yangidan-yangi estetik dunyoqarashlar xilma-xilligi va badiiy estetik tafakkur o'ziga xos o'rin egalladi. Bu esa o'z o'rnida Sharq adabiyotining G'arb adabiyotiga va aksincha, G'arb adabiyotining Sharq adabiyotiga bo'lgan ta'sirini sezilarli oshishiga olib keldi. Kundan kunga takomillashib borayotgan realizm metodi boshqa bir qancha adabiy oqimlar bilan birga qo'shilib o'ziga xos joziba kasb etdi. XX asrning 60-yillariga kelib esa Misr adabiyotida yangicha oqim "Yangi mavj" oqimi vujudga keldi. Bunda g'arb adabiyoti ta'sirida o'zlashgan modernizm tamoyillari-yu, realizm va milliy adabiyot unsurlari bir-birini to'ldirib, uyg'unlashib ketdi.

Bu davrda umumjahon adabiy jarayonlar ta'siri natijasida bir qator Misr adiblari arab xalqining dunyoqarashi, qadriyatlarini, milliy xususiyatlariga mutanosib bo'lgan asarlarni yaratdilar. Bu davrga kelib (القصة القصيرة - al-qissa al - qasira) – hikoya janri Misr adabiyotining yetakchi janrlaridan biriga aylandi. Misr hikoyanavisligidagi ana shunday tamoyillarni Muhammad Hofiz Rajab, Ibrohim Aslan, Diya ash-Sharqoviy, Jamol al-G'itoni, Muhammad al-Bustoni, Majid Tobia, Abdal-Hakim Qosim, Ahmad Hoshim ash-Sharif, Hasan Muhassib, Yahyo at-Tohir Abdulla, Baha Tohir va boshqalarning ijodida ko'rish mumkin. Yuqorida nomi zikr etilgan "yangi mavj" oqimi tarafdorlari dastlab hikoyanavislikda o'zlarini sinab ko'rishdi. 1967-yilda Misr-Isroil o'ratasidagi bo'lib o'tgan 5 kunlik urush, tushkunlik, va ma'yus kayfiyat ushbu hikoyalarda o'z

aksini topdi. Ko'pchilik yozuvchilar avval o'zlarini hikoya janrida sinab ko'rdilar va keyinchalik esa roman janriga o'tdilar. Romanchilikda esa Najib Mahfuz, Yusuf Idris, Abd al-Hakim, Yahyo Abdulla, Jamol al-G'itoni, Diya ash-Sharqoviy, Sunalloh Ibrohim, Yusuf al-Quayid "Yangi roman" namunalarini yaratdilar. Misr romanchiligi zamonaviy bosqichda milliy meros an'analari va jahondagi adabiy jarayonlar ta'siri ostida uyg'unlashib yangi qiyofa kasb etdi. Zamonaviy Misr romanchiligidagi tasviriy-ifodaviy vositalarning boyligi, o'ziga xos maftunkor olamini misrlik adiba Salva Bakr ijodida ham kuzatishimiz mumkin.

## CREATIVE WORLD OF MODERN EGYPTIAN WRITER SALWA BAKR

*Nasiba Umarova*

*PhD student,*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Arab world, Egyptian literature, short story, novel, tradition and innovation, national heritage, realism, modernism, postmodernism, new wave, new novel, short novel.

**Abstract:** The Arab world is diverse and colorful. Each Arab country has its own culture and literature. Modern Egyptian literature, especially novelism, shows its national characteristics with its effectiveness and the uniqueness of the authors' style.

In the second half of the XX th century, a variety of new aesthetic worldviews and artistic and aesthetic thinking occupied a special place in the development of Eastern literature. This, of course, led to a significant increase in the influence of Eastern literature on Western literature and, conversely, Western literature on Eastern literature. The method of realism, improved day by day, acquired its charm by joining with some other literary movements. By the 60s of the XX th century, a new trend, the New Wave, appeared in Egyptian literature. At the same time, the principles of modernism, elements of realism and national literature, assimilated under the influence of Western literature, complemented each other and became harmonious. During this period, as a result of the influence of world literary processes, a number of Egyptian writers created works that corresponded to the worldview, values, and national characteristics of the Arab people. By this time, the genre of the story (القصة القصيرة - al-qissa al-kasira) had become one of the leading genres in Egyptian literature. Muhammad Hafiz Rajab, Ibrahim Aslan, Diya al-Sharqawi, Jamal al-Gitani, Muhammad al-Bustani, Majid Tobia, Abdal-Hakim Qasim, Ahmad Hashim ash-Sharif, Hasan Muhasib, Yahya al-Tahir developed such principles in Egyptian storytelling. This can be seen in the works of Abdullah, Baha Tahir and others. Supporters of the "new wave" direction mentioned above tried writing stories for the first time. These stories reflected

the 5-day war between Egypt and Israel in 1967, depression and a gloomy mood. Many writers first dabbled in the short story genre and then moved on to the novel genre. In writing novels, Najib Makhfouz, Yusuf Idris, Abd al-Hakim, Yahya Abdullah, Jamal al-Gitani, Diya ash-Sharqawi, Sunallah Ibrahim, Yusuf al-Queid created examples of the New Novel. At the present stage, the Egyptian novel has united under the influence of the traditions of the national heritage and world literary processes and reflected a new image. We can observe the richness of visual and expressive means of modern Egyptian novels, the unique enchanting world in the works of the Egyptian writer Salva Bakr.

---

## ТВОРЧЕСКИЙ МИР СОВРЕМЕННОГО ЕГИПЕТСКОГО ПИСАТЕЛЯ САЛВЫ БАКРА

*Насиба Умарова*

*Докторант,*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** арабский мир, египетская литература, рассказ, роман, традиция и новаторство, национальное наследие, реализм, модернизм, постмодернизм, новая волна, новый роман, короткий роман.

**Аннотация:** Арабский мир разнообразен и красочен. Каждая арабская страна имеет свою культуру и литературу. Современная египетская литература, особенно романистика, проявляет свои национальные особенности своей действенностью и своеобразием авторского стиля..

Во второй половине XX века особое место в развитии восточной литературы заняли разнообразные новые эстетические мировоззрения и художественно-эстетическое мышление. Это, безусловно, привело к значительному усилению влияния восточной литературы на западную и, наоборот, западной литературы на восточную литературу. Метод реализма, совершенствуемый день ото дня, приобрел свое очарование, соединившись с некоторыми другими литературными течениями. К 60-м годам XX века в египетской литературе появилось новое течение — «Новая волна». При этом принципы модернизма, элементы реализма и национальной литературы, ассимилированные под влиянием западной литературы, дополняли друг друга и становились гармоничными. В этот период в результате влияния мировых литературных процессов ряд египетских писателей создавали произведения, соответствующие мировоззрению, ценностям и национальным особенностям арабского народа. К этому времени жанр рассказа (القصة القصيرة - аль-кисса аль-касира) стал одним из ведущих жанров в египетской литературе. Мухаммад Хафиз Раджаб, Ибрагим Аслан, Дия аль-Шаркави, Джамаль

аль-Гитани, Мухаммад аль-Бустани, Маджид Тобиа, Абдал-Хаким Касим, Ахмад Хашим аш-Шариф, Хасан Мухасиб, Яхья аль-Тахир разработали такие принципы в египетском повествовании. Это можно увидеть в работах Абдуллы, Баха Тахира и других. Сторонники упомянутого выше направления «новая волна» впервые попробовали писать рассказы. В этих историях отразились 5-дневная война между Египтом и Израилем в 1967 году, депрессия и мрачное настроение. Многие писатели сначала пробовали себя в жанре рассказа, а затем перешли к жанру романа. В написании романов Наджиб Махфуз, Юсуф Идрис, Абд аль-Хаким, Яхья Абдулла, Джамаль аль-Гитани, Дия аш-Шаркави, Суналла Ибрагим, Юсуф аль-Квейд создали образцы Нового романа. На современном этапе египетский роман объединился под влиянием традиций национального наследия и мировых литературных процессов и отразил новый образ. Богатство изобразительных и выразительных средств современных египетских романов, неповторимый чарующий мир мы можем наблюдать в произведениях египетского писателя Сальвы Бакр.

---

## KIRISH

Zamonaviy Misr adabiyoti, xususan, romannavisligi o'zining serjiloligi va ijodkorlar uslubining o'ziga xosligi bilan o'z milliy xususiyatlarini namoyon qiladi. XX asr Misr, Suriya, Iroq, Tunis, Livan, Iordaniya, Falastin va boshqa bir qator arab mamlakatlari adabiyotida roman janrining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari, uning namoyandalari ijodi muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, Misr adabiyotining taniqli vakili Salva Bakr ijodi nisbatan kam tadqiq etilgan. Zamonaviy Misr adabiyoti, xususan, Salva Bakr ijodini tadqiq qilish umumarab adabiyoti, xususan Misr adabiyoti taraqqiyoti haqida yanada to'liqroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

XX asrning o'rtalariga kelib umumjahon adabiy jarayonlari ta'siri natijasida bir qator Misr adiblari arab xalqining dunyoqarashi, qadriyatlarini, milliy xususiyatlariga mutanosib bo'lgan asarlar yaratdilar.

## TADQIQOTNING USULLARI

XX asr ikkinchi yarmi Misr romanchiligi, zamonaviy Misr adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri, romannavis, adabiy tanqidchi, jurnalist Salva Bakr ijodiy olami, uning romanlari badiiy-estetik xususiyatlarini yoritib berish.

**Usullar:** qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

## NATIJALAR

Ikkinchi jahon urushi butun dunyo xalqlari hayotiga sezilarli ta'sir o'tkazib, siyosiy va ijtimoiy hayotida muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Xususan, butun arab mamlakatlari bo'ylab milliy ozodlik harakatlari boshlanib ketdi. Milliy ozodlikka erishgan mamlakatlarda an'anaviy hayot tarzini o'zgartirish va jamiyatni qaytadan yangicha ruhda barpo etish masalasi ko'ndalang qo'yildi, bunda albatta milliy adabiyotning va adabiy jarayonlarning ta'siri yuksak bo'ldi. XX asrning 60-90-yillarida ham Misr adabiyotida yangilanish jarayonlari ro'y berdi.

Ushbu yillarda Misr romannavisligi yangi zamonaviy bosqichga ko'tarildi. Bunda jahondagi adabiy jarayonlar, yangi metodlar va ijodiy izlanishlardan xoli bo'lmagan tarzda rivojlana bordi. Yangi davrda badiiy ong va estetik dunyoqarash o'ziga xos shakllanib bordi, shu bilan birga sharq adabiyotining g'arb adabiyotiga, va aksincha g'arb adabiyotining sharq adabiyotiga bo'lgan ta'siri kuchayishi oqibatida madaniyatlar va turli milliy qadriyatlar o'rtasida o'zaro almashinuv jarayonlari ham sezilarli ko'paydi.

Misr arab yozuvchilari - Najib Mahfuz, Yusuf Idris, Abdur Rahmon ash-Sharqoviy, Yahyo Haqqiy va boshqalar zamonaviy hayotga tanqidiy nazar tashlash orqali jamiyatni o'zgartirishda shaxsning alohida o'rni va ahamiyatini ifodalaydilar. Jamiyatni faqat kuchli iroda sohiblari, yetuk insonlar rivojlantira oladi, degan g'oya ular yaratgan asarlarning negizini tashkil etadi.<sup>1</sup>

Har qaysi davlatning iqtisodiyoti og'ir sanoatning qay darajada rivojlanganiga qarab belgilanganidek, har qaysi milliy adabiyotning insoniyat estetik tafakkuriga qo'shgan hissasi ham undagi romannavislikning salmog'i bilan aniqlanadi. Chunki roman millat badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasini namoyon etadi. Misr romanchiligi rivojlanishi ham o'z navbatida millat badiiy tafakkuri takomiliga xizmat qildi.

XX asr 70-yillariga kelib Misr adabiyotida roman janri jadal sur'atlarda rivojlanib bordi. Bir tarafdin milliy meros an'analari va boshqa tarafdin jahon adabiyoti boy tajribasi Misr romanchiligida o'ziga xos shakl va uslublarga ega bo'lgan "yangi roman" rivojini sezilarli ravishda o'sishiga olib keldi. Bunday romanlarning asosiy xususiyatlaridan quyidagilarni sanashimiz mumkin:

- Zamon va makon chegaralarining erkin tanlanishi;
- Hayot va haqiqatning qorishiq tasvirlanishi;
- Ramzlar va majozlarning ko'p qo'llanilishi;
- Aniq vaqtni ko'rsatmaslik;
- Bir hodisani asarda bir necha kishi tomonidan bayon etilishi;
- Monologlardan ko'p foydalanish;
- Ong oqimi, psixologik tasvirning kuchayishi;
- Bayon qilishda izchillikni saqlamaslik;
- Milliy meros an'analari va xalq badiiy ijod namunalari tayanish.
- Ichki ovoz, she'riy aralashmadan foydalanish;
- Kollaj va telegraf usulini qo'llash.

Jahon romanchiligida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan mashhur yozuvchilar Sartr va Kamyu, Kafka va Joys, Folkner, Heminguey, Alen Rob Griye, Natali Sarrot, Ivo Andrich, Nikos Kazandzakis, keyinchalik Garsea Markes asarlari tarjima va originalda o'qildi. Bu esa o'z navbatida hayotni chuqur his qiladigan adabiyotning shakllanishiga yordam berdi va Misr "yangi roman"ini yangi bir bosqichga olib chiqdi.

Najib Mahfuz qalamiga mansub "Ko'chamiz bolalari", Yusuf Idrisning "Oppoq" romanlari Misr Yangi romanining ilk asarlari sifatida adabiyot tarixida saqlanib qoldi. Ijodiy izlanishlar besamar ketmadi 1988-yili Najib Mahfuz Nobel mukofoti sovrindori bo'ldi.

Ijtimoiy-siyosiy muammolarni, hayotiy murakkab serqirra jihatlarini ochib berishga qaratilgan "yangi roman" hajm jihatdan qisqardi. Ko'plab adabiy tanqidchi olimlar fikricha, romanning hajm jihatdan qisqarishi asar sifatiga ta'sir etmadi, balki aksincha yozuvchidan teran

<sup>1</sup> R.U.Xodjayeva.Misr adabiyotida "Yangimavj" oqimi.T.:2010;B-5.

mushohada yuritish va chuqur mulohaza qilishni talab qildi. Bu esa yangi roman shakli "qisqa roman"ning vujudga kelishiga yo'l ochdi.

Hozirgi kunda jahon adabiyotida romanning bu shaklida turli tuman asarlar yozilib, kitobxonlar orasida juda ommalashib ketdi.

Qisqa roman uzun hikoya, o'rta hikoya va turli nomlar ostida bo'lgan gibril roman janri hisoblanadi va uning kashshoflari Jovanni Bokachcho, Frans Kafka, Tomas Kent va Ernest Xeminguey hisoblanadi. Hozirda jadallik bilan rivojlanib borayotgan texnika asrida axborot almashinuvi juda tezlashib ketdi. Bu hodisa hamma sohalarga ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bu integrallashgan va tig'izlashgan hayot tarzimiz adabiyotni yangi bosqichga olib chiqdi. Hozirgi kunda 150-200 sahifadan oshmaydigan turli tuman romanlar juda ommalashib ketdi. Bu qisqa roman atamasi bilan atala boshlandi. Uning qisqartirilishi asarning asosiy belgi-elementlari (muhit, syujet, vaqt ...) betlari ko'p bo'lgan romanga nisbatan murakkabligi o'zgarishini anglatmaydi. Aslini olganda yozuvchi ushbu omillarning rivojlanishini xuddi shunday zich, ammo kamroq so'zlar bilan ushlab turishga intiladi. Qisqa romanlar ixcham va aniq bo'lishi bilan ajralib turadi. Ya'ni voqealar rivoji, asosan, bitta syujetga va shu bilan birga rivoyatchi turidan foydalanishga qaratiladi. Jahon adabiyotida ham ko'plab yozuvchilar ushbu roman shaklini boshdan o'tkazganlar.

Na hikoyadek qisqa va na romandek uzun, qisqa romanlar bu ikki tomonni o'zida qamrab oladi. Bir ikki kunda bemalol o'qish imkoniyatini qisqa romanlar bera oladi. Va biz ushbu qisqa romanlarni o'qib tugatganimizda, to'liq romanning ta'mini his qilamiz. Uning boshlanishini, o'rtasini va oxiri bizning tasavvurimizda uning fonida va uning eng tavsifli ko'rinishida yangi yashashga yaroqli dunyoni qayta yaratgandek izchil bo'ladi.

Albert Kamyu tomonidan "Chet elda", Ernest Heminguey tomonidan "Chol va dengiz", Josef Konrad tomonidan "Zulmatning yuragi", Lev Tolstoy "Ivan Ilyichning o'limi", Xuan Rulfo tomonidan "Pedro Paramo" kabi qisqa romanlar yozilgan. Zamonaviy Arab adabiyotida qisqa roman "rivayatun qasiratun" - "رواية قصيرة" deb nomlanadi, uning namunalari sifatida quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin: G'assan Kanafani qalamiga mansub "Hayfaga qaytish" (1981) 72 bet, Yusuf Idrisning "Ilohiy" (1959) 144 bet, Bahaa Tohir "Mening xolam va din" (1991) 141 bet, Najib Mahfuzning "Hurmatli janob", (1976) 158 bet, Ibrohim Aslanning "Nil qushlari" (2005) 181 bet kabilar misol bo'la oladi.

Dunyodagi eng qisqa roman yekaterinburglik yozuvchi Roman Blinovga tegishlidir. Uning "Nomsiz roman" asari eng qisqa roman hisoblanadi. Muallif tomonidan nano-roman, deb e'tirof etilgan bu asar bor-yo'g'i ikkita qisqa jumladan tashkil topgan: "Keragi yo'q. Men o'zim." Aslida romandagi bu ikki gap do'stona o'tirishlardan birida aytilgan edi - o'shanda muallif bu ikkita qisqa jumla orqali erkak va ayol o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning barcha tomonlarini ko'ra olgan edi. 2010- yilda "Nomsiz roman" Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Bunday ijodiy yangilanishlar va izlanishlar hozirgi kunda o'zbek adabiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Iste'dodli yozuvchi Ulug'bek Hamdam qalamiga mansub "Na'matak" romani ham mana shunday ijodiy izlanishlar samarasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Besh betlik roman - Na'matakda ("Sharq yulduzi" jurnal, 2013-yil 3-son) ikki juft oshiq, oltita ota-ona obrazini yaratadi. Sakkiz-o'n chog'li qahramonlarga ism berish qiyin emasdi. Ammo adib birinchi, ikkinchi avlod deb atashni afzal biladi. Voqea qayerda va qachon bo'lgani noma'lum. Uch avlod vakillari, deyilgan. Demak 70-75 yillik voqealar tasvirlangan. U Hamdam birinchilardan bo'lib qisqa roman namunasini yaratdi. Bu jabhadagi izlanishlar davom etishi

lozim. Boshlangan xayrli ish zinhor yarim yo`lda qolib ketmaydi.<sup>2</sup> “Na`matak” mini roman, nano roman va qisqa roman degan terminlar orqali ifodalanib kelinmoqda.

Hozirgi kunda Misr romannavisligida ham ana shunday ijodiy izlanishlardan cho`chimaydigan mahoratli Salva Bakrning ijodi salmoqli o`rinni egallaydi. Uni bir ovozdan mahoratli romannavis adiba deya e`tirof etsak bo`ladi. Chunki uning ko`plab asarlari aynan roman janrida bitilgan, qisqa roman shaklida ham bir qancha ijod mahsullarini yaratgan.

Salva Bakr (1949-yilda tug`ilgan) misrlik adabiy tanqidchi, romannavis yozuvchi. U 1949-yilda Qohiraning Matariyya tumanida tug`ilgan. Uning otasi temiryo`lchi edi. U Ayn Shams universitetida (biznes bo'yicha tahsil olib, 1972-yilda bakalavr darajasini oldi. U yana 1976-yilda jurnalistikadagi karyerasini boshlashdan oldin adabiy tanqid bo'yicha bakalavr darajasini oldi. Salva turli arab gazeta va jurnallarida kino va teatr tanqidchisi bo`lib ishlagan. Bakr Kiprda eri bilan bir necha yil yashab, 1980-yillarning o`rtalarida Misrga qaytib keladi.

Bakrning otasi erta vafot etgan, onasi erta beva qolib, Salvanning tarbiyasiga o`zi bosh bo`ldi. Uning asarlari asosan kambag`al va marginallashgan odamlar hayoti bilan bog`liq. Uning “Oltin arava osmonga ko`tarilmaydi” deb nomlangan romanida yordamga muhtoj, hayotda turli qiyinchiliklarga uchragan mahbus ayollar muammolari ochib berilgan. 1986 yilda Salva Bakr o`zining “Zinat prezident dafn marosimida” deb nomlangan to`plamini nashr ettirdi. Shundan beri u bir qancha hikoyalar va romanlarini nashrdan chiqardi.

1992-yili “Dehqon xamiri” nomli romani, 1993-yili “Bulbul vasfi” hikoyalar to`plami va 1994-yilda “Quyonglar” nomli romani, 1996-yili “Qarama-qarshi ritmlar” nomli hikoyalar to`plami nashr etildi.

1998-yil Salva hayotida tub burilish davri bo`ldi. Bu yil “Al-Bashmuriy” romanini nashr qildi, unda ilgari hech kim ko`rsatishga jur`at etmagan mavzuni ko`tardi. Unda bosqinchilikka uchragan mamlakatlarda, jumladan, Misrda islom xalifaligi davri ko`rib chiqildi. Bu asar ko`plab chet tillariga tarjima qilindi va ko`plab kitobxonlar e`tirofiga sabab bo`ldi. Tarixiy roman yozish muallifdan o`ta mashaqqatli mehnat va tarix haqiqatlarini yuzaga chiqarishni talab etadi. Bu asar yozilishi uchun Salva Bakr ham ko`plab tarixiy manbalar ustida ish olib borgan. Uning tinmay olib borgan izlanishlari besamar ketmadi va o`z natijasini berdi. U 1999-yilda Germaniya xalqaro radioeshittirish korporatsiyasi tomonidan taqdim etilgan "Deutsche Welle" mukofotini qo`lga kiritdi. Bundan ilhomlangan adiba yangidan yangi asarlar yozishni davom ettirdi. Aynan shu yili uning “Nuna Ashsha`nuna” nomli romani chop etildi.

Salva Bakr nafaqat yozuvchi, adabiy tanqidchi bo`lishi bilan bir qatorda yetuk olim hamdir. Salva Bakr 2001-yildan buyon Amerika universitetida professor sifatida ham faoliyat yuritib kelmoqda va u bir vaqtning o`zida talabalarning sevimli ustoz hamdir.

Ming yillikning boshida, xususan, 2002-yilda Salva Bakr "Yillar orzusi" nomi ostida yozilgan birinchi pyesasini nashr etdi. 2003-yilda Salva o`zining “Vaqt g`ildiraklari” nomli romanini va aynan shu yili “Ajdodlar tuyg`usi” hikoyalar to`plamini nashr ettirdi. To`plam kitobxonlar auditoriyasi tomonidan juda yaxshi qarshi olindi. Yozuvchiga muvaffaqiyat olib keldi.

2004-yilda Salva yana tarixiy roman yozishga jazm etdi. "Koko Sudan Kabashi" romani orqali urushlarda doimo ishtirok etadigan inson matonati va vijdonining ajoyib suratini taqdim etdi. 2006-yilda Salva Bakr "Admatiyus Almasiy" romani orqali tarixga qaytdi va uni bugungi kun bilan uyg'unlashtirdi. U har bir tarixiy asarini yaratishda tarixiy haqiqatga alohida e`tibor

---

<sup>2</sup> Abdug`a fur Rasulov, "Sharq yulduzi" 2014-2.

qaratib, roman yaratishdan oldin juda ko'p izlandi va mashshaqatli mehnat qildi. "Saodat va shifo xabaridan" nomli hikoyalar to'plami ham aynan shu yili nashr yuzini ko'rdi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Salva serqirra ijodkor u nafaqat romannavis, balki adabiyotshunos olim, adabiy tanqidchi, jurnalist, hikoyanavis, dramaturg hamdir.

Salva Bakr siyosiy vaziyat taqozosi bilan bir muddat yashirib yurdi, faqat 2010-yilda mashhur Piramidalar jangining bir qismiga bag'ishlangan "Tol va Mirta" romanini nashr etdi. O'sha yili "Isfaxon atirgullari" hikoyalar to'plamini ham chop etdi. Uning bir qancha asarlari nafaqat arab dunyosida, balki jahon adabiyot ixlosmandlari tomonidan iliq kutib olindi. Salva Bakrning asarlari juda ko'plab tillarga tarjima qilindi. Bu esa Salva Bakrning kitobxon muxlislari soni ortishiga olib keldi.

Salva Bakr "Vaqt g'ildiraklari" qisqa romanida inson psixologiyasining qanchalik murakkab ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Salva inson ruhiyatini chuqur taftish qiladi va murakkab ziddiyatlarning kelib chiqish sababini o'rganadi. "Vaqt g'ildiraklari" romani ham psixologik tafsilotlar bilan yo'g'rilgan badiiy tadqiqotga o'xshaydi. Unda ramziy obrazlar ham uchraydi, kitobxonni mushohada etishga undaydi.

Asar tafsilotlaridan fikr va fikrlash, tafakkur asosiy o'rin tutganligini bilamiz. Bosh qahramon Hasan jamiyatda oddiy bir ishchi sinfi vakili sifatida namoyon bo'ladi. Ammo, sevgilisi Sohbaning sof sevgisi mulohazalari uni lol qoldiradi va o'ylashga undaydi.

Asarning bosh g'oyasini tashqi ko'rinishi va jismoniy hatti-harakati bilan birga o'y-mulohazalari, fikrlari, g'oyalari orqali bosh qahramon Hasan o'quvchiga tanitib boradi. Asar davomida ko'plab qahramonlarga duch kelamiz. Hasan har bir personaj bilan uzoq va yaqindan munosabatga kirishganda, u jamiyatning bir oddiygina bo'g'inini tashkil etuvchi oddiy shaxs sifatida yuz ochib boradi, shuningdek yangidan yangi qirralari ochilib boradi. Asarning so'nggida esa Hasanning afsus va nadomatlar girdobida qolgani juda mahorat bilan tasvirlangan.

Kichkina odam. Romandagi qahramonlarning aksariyati kichik odamlardir. Ularning barchasi katta shaharda o'zlarini yo'qotadilar va o'z orzularini amalga oshirish, hayot mazmunini topish uchun o'zlarida kuch topa olmaydilar. Ular umidsiz ahvolda, har biri o'ziga xos tarzda botqoqqa botib, undan qutulishga urinadilar.

Inson o'z aybini anglab yetmaguncha tavba qilib, xatosini tuzata olmaydi. Bunda unga faqat to'g'ri tarbiya jarayonida shakllangan vijdoni yordam beradi. Shu sabab asar bosh qahramoni Hasan o'z nafi va vijdoni bilan doimiy kurashda yashaydi. Yozuvchi bu tushunchalarni tadqiq qilib, insonda yuksak mas'uliyat va adolat tuyg'usini singdira olishiga ishora qiladi. Iymondan voz kechishi bilan inson o'z harakatlarini to'g'ri baholash qobiliyatini yo'qotadi. Din esa uning xarakteridagi yomon tomonlarni tiyib turuvchi vositadir.

Bu romanda hamdardlik muammosi ham katta o'rin tutadi. Odamlar o'zlarining qiziqishlari va muammolari doirasida yopiq, ular boshqalarning qiyinchilik va dardlarini ko'rmaydilar va sezishni xohlamaydilar. Bu barchamiz faqat o'zimizga achinadigan va yolg'iz egoistlarga aylanib qolishimizga olib keladi.

Salva Bakr tomonidan qo'yilgan asosiy g'oya - tavba qilishning muqarrarligidir. Muallif o'quvchiga ma'naviy tomondan jazo huquqiy tomondan jazoga qaraganda yomonroq va og'riqli ekanligini ko'rsatishga urinadi. Og'ir oqibat har doim jinoyatchiga yetib boradi, hatto u barcha dalillarni yashirsa va hatto o'zi yer ostiga yashirinsa ham. Samoviy adolat uxlamaydi, chunki uning poydevori har birimizning qalbimizda qo'yilgan. Gunohkorning ichki holati - bu uning gunohlari uchun jazosidir. Har bir jinoyat ortidan jazo keladi va bunda insonga ko'rinmaydigan



ilohiy adolat yotadi. U nafsi ortidan qilgan nojo`ya ishining jazosini olishi bu uning ichki tug`yonlari ifodasi sifatida namoyon bo`ladi.

### **XULOSA**

Guvohi bo`lganimizdek, romanda ko`tarilgan asosiy g`oya bu o`zligini anglash va vijdoniga qarshi ish qilmaslik, milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiq qolish.

Yozuvchining "سواقي الوقت" "Vaqt g`ildiraklari" romani shunday asarlardan biri bo`lib, unda tarix va zamona uyg`unlashib ketadi.

Yozuvchi romanda Misr Respublikasida tarixdan katta muammolardan biriga aylangan noqonuniy kontrabanda mavzusini ko`tarar ekan, bu yerlardan necha asrlardan beri asori atiqalar noqonuniy olib chiqib ketilishi va tirikchilik tashvishida yurgan insonlarning og`ir hayotlari juda ishonarli tasvirlangan. Yozuvchi hikoyada bularni ifodalar ekan, dinimizda muqaddas bo`lgan oilaviy munosabatlarni asrash, ularga mehr qo`yish, tug`ilib o`sgan zaminga muhabbat g`oyasini ilgari suradi. Bu bilan yozuvchi barchani shu muqaddas burchga sodiq qolishga chorlaydi. Har qanday boylik va mansab bu qimmatli qadriyatlardan ustun bo`la olmasligini uqtiradi. Ona vatan uning har bir qarich yeri, insoniylik tuyg`ulari hamma narsadan afzal ekanligini juda go`zal ko`rsatib bera olgan. Bu ham yozuvchining mahoratidan darak beradi. O`quvchini asardan keraklicha xulosalar chiqarishga undaydi. Samimiy sof tuyg`ular hech bir narsaga teng kela olmasligini go`zal tasvirlab bera olgan.